

TURKIY XALQLAR QISSACHILIGIDA MAKTUB (Pirimqul Qodirov va Chingiz Aytmatov qissalari misolida)

Anvar Allambergenov,
filologiya fanlari bo'yicha falsada doktori
anvarallambergenov11@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0009-1497-0343>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pirimqul Qodirovning “Erk” va “Qadrim” qissalari hamda Chingiz Aytmatovning “Erta qaytgan turnalar” qissasida talqin qilingan maktublar tahlilga tortilgan. Tahlillar davomida mualliflarning uslubiy o'zigaxosligi va badiiy mahorati haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qissalar, milliy qadriyat, maktub, uslubi, mahorat.

Аннотация: В данной статье анализируются рассказы «Эрк» и «Кадрим» Пиримкула Кадырова и письма, интерпретированные в рассказе «Ерта кайтган турналар» Чингиза Айтматова. В ходе анализа также обсуждаются стилистическое своеобразие и художественное мастерство авторов.

Ключевые слова: рассказы, национальная ценность, письмо, стиль, мастерство.

Abstract: This article analyzes the stories "Erk" and "Qadrim" by Pirimqul Kadirov and the letters interpreted in the story "Erta kaitgan turnalar" by Chingiz Aitmatov. During the analysis, the authors' stylistic originality and artistic skill are also discussed.

Keywords: stories, national value, letter, style, skill.

Maktublar qadim zamonlardan beri insonlarning so'zsiz ravishda aloqa quroli vositasi vazifasini bajarib kelmoqda. Asrlar mobaynida xabar almashinuv tezligi juda sekin bo'lgan. Ayniqsa bu olis masofalardagi insonlarning bir biri bilan axborot almashinuvida yaqqol sezilgan. Zamon taraqqiy eta boshlagach bu kabi xabar almashish tezligi ham ortgan. Texnika asriga kelib esa dunyoning turli qit'alaridagi xabarlarini sanoqli soniyalarda bilish imkoniyati paydo bo'ldi. Xatlar insonlarning hayoti davomida u yoki bu shaklda ularning kayfiyatiga, holatiga hamda ba'zi hollarda taqdiri o'zanining o'zgarishi va burilishiga sabab bo'lgan. Bu kabi hayotiy voqealar badiiy asarlarda ham o'z aksini ko'rsatgan. Masalan, badiiy adabiyotda faqat yozilshmalardan iborat asarlarning bitilishi, yoki asar syujetini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin bo'lgan xatlarning asarda berilish holatlari ham talaygina. “O‘zbek adabiyoti tarixida maktub (noma) janrida yozilgan asarlar, she’riy maktublar, maktub-she’rlar uchraydi. Shuningdek, folklor asarlari, mumtoz xamsachilik va dostonchilikdan e’tiboran maktub “asar ichida asar” o‘laroq umummatn harakatining muhim uzvi bo‘lib keladi.”¹

¹ www.oyina.uz U.Jo'raqul “Toshkand ustida qonliq bulutlar” – “O‘tkan kunlar”ni ochuvchi va xulosalovchi maktublar xususida” maqolasi 14.04.2023.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Xatlar har xil tur va janrlarda yozilgan asarlarda uchrashi mumkin. Ayniqsa, epik turning hikoya, qissa va roman kabi janrlarida maktublardan mualliflar turli maqsadlarda foydalanadi. Masalan, syujet unsurlaridan biri ya’ni ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, voqealar rivoji, yechim kabilarni xatlar yordamida berib o‘tish yoki maktublardan badiiy detal, xulosa o‘rnida foydalanish ham asar badiiyatini yuksaltirib, o‘qishlilikini orttirishi mumkin. Bu, albatta, eng avvalo adiblarning badiiy mahoratiga bog‘liq. Jahon adabiyotiga nazar soladigan bo‘lsak ba’zi ijodkorlarning bir-biri bilan o‘zaro shaxsiy yozishmalari ularning biogarfiyasini o‘rganishda, hasbi holini yaxshi bilishda qimmatli manba vazifasini bajargani ham bor gap.

Xatlarni o‘z asarlarida mahorat bilan qo‘llash bobida o‘zbek adiblarini ham alohida e’tirof etish o‘rinli. Masalan yangi o‘zbek nasrining dastlabki namunalari Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ida, “Mehrobdan chayon”ida, Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz”ida berilgan betakror xatlar, obrazlarning sog‘inchli, hasratli maktublari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Turkiy xalqlar adabiyotining peshqadam vakillari Pirimqul Qodirov va Chingiz Aytmatov kabi zabardast yozuvchilarimiz o‘zlarning har xil janrdagi asarlarida obrazlarning bir-birlari bilan xat yozishish, xabar almashish, izhor, o‘tinch ma’nosidagi maktublari uchraydi. Yuqorida nomlari zikr etilgan adiblarning qissalarida keltirilgan xatlarni quyida qiyosiy ravishda tahlil etishga harakat qilamiz.

Pirimqul Qodirovning “Qadrim” qissasida Buxoro viloyatidagi hududlardan gaz qazib olish ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar Iskandar va Zulayho ismli ikki yoshning bir biriga bo‘lgan muhabbati fonida talqin qilingan. Qissadagi voqealar oddiy mehnatkash xalq hayotidan olingan. Bir biriga ko‘ngil qo‘ygan ikki yosh o‘rtasida kechuvchi jarayonlar o‘sha davr uchun muhim bo‘lgan hodisa gaz izlash, uni topish va yer qaridan talofatsiz chiqarish, qolaversa uni aholiga yetkazib berish kabi masalalar bilan parallel ravishda olib boriladi. Bundan tashqari davrning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, xalqning, ayniqsa yoshlarning kayfiyati aniq talqin qilinganligi adibning badiiy mahoratidan darak berib turadi. Mavzuyimiz bevosita xatlar bilan aloqador bo‘lganligi boisdan qissada keltirilgan yagona maktub haqida to‘xtalib o‘tishimiz joiz, albatta. “Qadrim” qissasida qisqa shaklda faqatgina bitta maktub keltirilgan. “Yulduzlar chiqqanda shaharchaning chetidagi do‘nglikda kutaman. O‘tinib so‘rayman! Agar kelmasangiz, unda abadiy xayr. Qishloqqa qaytib ketaman. I.”² Iskandarning Zulayhoga yozgan bu maktubi qisqa va lo‘nda shaklda

² Qodirov P. Qadrim. “Ilm-ziyo-zakovat” Toshkent 2022-yil 64-bet.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

shu tarzda ifodalangan. O‘n oltita so‘z va bitta harfdan iborat bu xatda noma muallifining muddaosi qisman ochiq ko‘rsatilgan. Muhabbat haqida bitilgan asarlarda, albatta, uchlik qismati talqin qilingan bo‘ladi. Bular oshiq, mashuq, raqib obrazlaridir. Bu holat jahon adabiyotida, mumtoz adabiyotimizda va yangi o‘zbek adabiyotida ham bot-bot uchraydi. Ayni holat “Qadrim” qissasida ham kuzatiladi. Bular Iskandar, Zulayho, Botir obrazlaridir. Iskandar Zulayho bilan bir sinfda o‘qigan maktabdan keyin qiziqishlariga qarab o‘zlari tanlagan texnikumlarga o‘qishga kirgan. Tadqir taqazosi bilan texnikum tahsilidan keyin Buxoroning cho‘llarida gaz qidirish ishlarida birga qatnashadilar. Shu vaqtga qadar bir birlariga ko‘ngillaridagi tuyg‘ularini oshkor qilmagan, lekin zimdan bir birini ayaydi, asraydi, avaylaydi, sevadi! Har holda ularning harakatlaridan bir biriga bo‘lgan muomala munosabatlaridan shuni payqash qiyin emas. Rivoyatlarga qaraganda otamiz Odam va onamiz Havvoda ham bir birlariga bo‘lgan tuyg‘ularini oshkor qilish istagi teng paydo bo‘lgan va Odam Ato birinchi bo‘lib Momo Havvoga tuyg‘ularini ochiq qilgan. Shu zamonlardan beri Odam o‘g‘illarining asosiy qismi otamizning sunnatlariga muvaffiq bu masalada birinchi bo‘lib tashabbus ko‘rsatar ekan. Shu ma’noda Pirmqul Qodirovning “Qadrim” qissasidagi bosh obraz Iskandar ham bolalikdan beri Zulayhoga bo‘lgan tuyg‘ularini oshkor etish maqsadida unga maktub yo‘llashga qaror qiladi. Lekin maktub uzundan uzoq, oshiqning dard va hasratlaridan iborat emas. Unda oshiq yigit o‘z sevgilisini ko‘rmoqchiligi bitilgan. Xatda ko‘rishish uchun qizning rozi bo‘lishini so‘rab yozilgan o‘tinch mazmunidagi gap hamda rozi bo‘lsa ko‘rishadigan zamon va makon aniq keltirilgan. Faqat qiz kelsa bo‘ldi qolgan gaplar yuzma-yuz shu yerda aytiladi. Qizdan javob olinadi va shundan keyin oldagi ishlar uchun qaror qabul qilinadi. Xatda e’tibor berishimiz lozim bo‘lgan yana bir jihat xat yozuvchining xat oluvchiga qattiq ogohlatirishi ham bor. Bu ogohlantirish quyidagicha ifodalangan. *“Agar kelmasangiz, unda abadiy xayr.”* Xatdan tushunish mumkinki, agar xat oluvchi kelsa demak uning ham ko‘nglida nomani yuboruvchiga nisbatan nimadir bor. Uning kelishi asosiy masala, qolganlari ikkilamchi. Masalan, qizga nisbatan boshqa yigitlarning iltifoti, xushomadi, qiz bilan ko‘proq suhbatlashishga bo‘lgan urinishlari. Qizning ham odob doirasida ularning savollariga javob berishi, iltimoslarini imkoni qadar, qo‘lidan kelganicha bajarishi kabi masalalar biz aytayotgan ikkilamchi masalalardir. Agar qiz xatda belgilangan joyga, belgilangan vaqtda kelsa demak u yigitga befarq emas. Agar qiz kelsa yigitda ham o‘ziga bo‘lgan ishonch ortadi. Qiz bilan bog‘liq rejalarini dadil ayta oladi.

Aynan xayr ma’nosidagi gapdan keyiningi gap esa xat egasining hali yosh, biroz qiziqqon, hayotiy tajribasi kam, g‘o‘r bir odam ekanligiga ishora qiladi. Xatda

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bu gap quyidagi shaklda keltiriladi “*Qishloqqa qaytib ketaman.*” Bu yerda xat oluvchini yengil qo‘rqitish va unga agar kelmagan taqdirda, aniqrog‘i biror sabab bilan kela olmagan taqdirda qayerda ekanligini bildirib qo‘yishdek belgi ham ko‘rinadi. Agar qizda yigitga nisbatan hech qanday his tuyg‘u bo‘lmasa uning qayerga ketishi, nima qilishi ahamiyatsiz. Iskandar o‘ylaydiki Zulayhoning ko‘nglida unga nisbatan zarracha nimadir bo‘lsa bu xatni e‘tiborsiz qoldirmaydi. Yuqorida aytib o‘tdik xat o‘n oltita so‘z va bitta harfdan iborat. U harf noma muallifi ismining bosh harfidir. Yosh oshiq ehtiyotkorlikni unutmaganini o‘quvchi shu bir bosh harfning berilishidan ham ilg‘ab olishi qiyin emas. Oramizda qon qonimizga singib ketgan andisha deb atalmish bir hislat mavjud. Ikkinchidan, oshiq yigit sevgan qizini ayashi, uni ortiqcha gap so‘zlarga qoldirmasligi bilan ham bog‘liq. Xat o‘z manziliga yetib borishdan oldin begonalarning qo‘liga tushib qolishi ehtimollarini ham hisobga olgan bo‘lsa ne ajab. Atrofdagilar xatdan xabar topsa-yu qizni malomat qilsa. Shu choqqacha hali sevishini ham aytib ulgurmagan yigit bilan oshiq-mashuqqa chiqarishsa. Qizni uyaltirishi mumkin. Shu sababli ismini to‘liq yozishning o‘rniga shunchaki katta I harfini yozib qo‘yish bilan kifoyalanadi.

Qissa voqealari bilan tanishmagan o‘quvchi shu xatni o‘qisa ham undagi samimiyatni, hayajonni, yoshlikni sezishi tabiiy. Undagi andishani, orzuni, istakni, xat egasiga bo‘lgan hurmatni, uni avaylashni, asrashga bo‘lgan urinishni payqash qiyin emas. Pirmqul Qodirovning hayotni kuzatganligi, qissani yozishdan oldin uning protatiplari bilan yaqindan tanishganligi yaqqol sezilib turadi. Qissa voqealarining ishonchli, hayotiy chiqqanligining bosh mezonlaridan biri ham uning hayotdan olinganidir. Yozuvchi Buxoroning ba’zi hududlaridan gaz qazib olishga harakt qilayotganlar orasida bo‘lgan. Sodir bo‘lgan avariya holatidagi oqibatlarini bartaraf qilishda shaxsan qatnashgan qahramonlar bilan suhbatlashgan. Avariya sodir bo‘lgan hududlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgani ham qissaning muvaffaqiyatli chiqqishini ta’minlagan omillardandir. Asosiy voqealar tugagandan keyin obrazlarning hayoti haqida ma’lumotlar berilmaydi. Ular haqida o‘quvchi o‘zicha xulosa chiqarish uchun ochiq qoladi va biz o‘ylaymizki qissada keltirilgan yagona maktub ikki sevishganning ishqona xat oldi berdilarining debochasi bo‘lgan.

Pirmqul Qodirov qissalarida xatlarni o‘z o‘rnida qo‘llashi va maktub bituvchining ruhiyatini, holatini, xat yozish jarayonida kechayotgan bor kechinmalarini to‘la ochib berganligini uning “Erk” qissasida keltirilgan maktubdan ham bilib olishimiz mumkin. Avvalo “Erk” qissasi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Bu qissa 1966-yili Toshkentda sodir bo‘lgan kuchli zilzilalardan keyingi yillarida sodir bo‘lgan voqea hodisalar ikkita yosh Sattor va Roziyaning hayotidagi burulish

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

nuqtalari fonida qalamga olingan. Sattor qishloqdan kelgan, shaharda o‘qigan, mutaxassisligi bo‘yicha qishloqda ish bo‘lmaganligi sababdan oiladagi yolg‘iz o‘g‘il bo‘lishiga qaramasdan, shaharda ishlab qolishga majbur bo‘lgan bir yigit. Roziya esa asli shaharlik qiz. Zilziladan so‘ng poytaxtdagi qurilish ta‘mirlash ishlariga qaysidir ma‘noda ulush qo‘shishga harakat qilib yurgan yoshlardan biri. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak metro qurilishini loyhalashtiruvchilardan biri. Dam olish kunlari Sattor o‘rtog‘i bilan, Roziya dugonasi bilan aylanib yurganda bir sabab bahona bo‘lib ular tanishib qoladi. Shu sababdan so‘ng Sattor va Roziya tez-tez ko‘rishib turishga bahonalar topilaveradi. Ular o‘rtasida munosabatlar paydo bo‘la boshlaydi. Shu jarayonda yozuvchi juda sillik ravishda Sattor obrazida kechayotgan ichki konfliktni mahorat bilan berib o‘tadi. Aslida Sattor ancha yillar oldin uylangan, otasi vafot etganligi, onasining yolg‘iz o‘zi qolganligi, bundan tashqari, shahardan oilasini olib kelishga uyi yo‘qligi sababdan ularni qishloqda qoldirib kelgan edi. U ayolini sevmasdi. Uylanganda juda yosh, hali o‘z muhabbatini uchratmagan, yolg‘iz onaning, qarindosh urug‘larning qistovi va yana ham aniqrog‘i ularning majburlashi bilan uylangan edi. Shu vajlar bilan bo‘lib uyiga ham tez-tez boravermaydigan, onda sonda xat yozib turadigan Sattor Roziyani uchratgach deyrli xat yozmaydigan, mehnat ta‘tili bo‘lsada har xil bahonalar bilan shaharda qolish uchun sabab axtaradigan holatga tushadi.

Yozuvchi Sattorning kechinmalarini, ichki konfliktini o‘zbekona tarzda, sharqona tarzda ifodalaydi. Yurak amriga bo‘ysunish maqsadida xotini bilan ajrashib, Roziyaga uylanishga qaror qiladi. Lekin xotinidan ayb-u, nuqson topib, uni kamsitib, ajrashishning bosh sababi qilib xotinidagi kamchiliklarni ko‘rsatish evaziga emas, ko‘ngil mayliga ergashgan holda ajrashmoqchi ekanligini tan olgan holda xotiniga bor gapni aytib ajrashishga qaror qiladi. Bu orada Roziyaga oilali ekanligini, ayoli bilan ajrashishini va unga uylanishini aytadi. Roziya ham Sattorni sevadi unga turmushga chiqishni xohlaydi, uzoq o‘ylagandan keyin qushning ham uyasi buzulmasin deya Sattorga rad javobini beradi. Rad javobini berish qizga oson kechmaydi. Negaki Roziyada ham Sattorga nisbatan muhabbat tuyg‘ulari uyg‘ongan, u haqda ko‘p o‘ylaydigan, ko‘rishni, uchrashishni xohlaydigan, ko‘proq vaqtini birga o‘tkizishni istaydigan, bor haqiqatni bilsada unga turushga chiqish haqida juda ko‘p o‘ylanayotgan bir vaziyatda edi. Qizning hayot ko‘rgan, yaxshini yomondan farqlay oladigan, hech narsaga qaramasdan yigit va qiz turmush qursa atrofdagilar ya‘ni yigitning onasi, xotini, o‘g‘li qanday ahvolga tushishini tasavvur qila oladigan bir opasi bor edi. Uning qistovlari bilan Roziya Sattorga rad javobini beradi. Bu javob ko‘rishib, yuzma-yuz berilgan javob emas. Bizning tadqiqot mavzuyimizga sabab

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bo‘lgan maktub orqali berilgan javob. “Sattor! Siz istagan yo‘ldan yurishga mening kuchim yetmas ekan. Bu xat yetib borganda men uzoq safarda bo‘laman. Alvido! R.”³ Xat o‘n sakkizta so‘z va bitta harfdan iborat. Maktub juda qisqa bo‘lishiga qaramasdan unda oshiq qizning iqrori, o‘kinchi, afsusi, qat’iy qarori mujassam ekanligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xatda Roziya “siz istagan yo‘l” deyapti aslida bu yo‘lni o‘zi ham istagan emasmidi. Yana ham anqrog‘i har ikkivining istak yo‘li, xohish yo‘li emasmidi. Roziya o‘ttiz yoshni qoralab qo‘yay deb turgan bir vaqtda Sattorni uchratdi. Lekin u baribir qiz bola. Shoira Halima Xudoyberdiyevaning bir she‘rida shunday satrlar mavjud “Qiz ko‘nglini sevmoqa osonga yo‘ymagaysiz”. O‘ttiz yosh bo‘ladimi, qirq yosh bo‘ladimi baribir qiz bolaning ko‘ngili, yuragi, qalbi bilan o‘ylaydi, shular bilan fikrlaydi. Va bu bilan xato qilishi ham mumkin yoki bir umr baxtli bo‘lishi ham mumkin. Ammo Roziyaning vaziyatida baxtini topishi uchun boshqalarning baxtiga chang solishga to‘g‘ri kelyapti. Birovlarning baxtsizligi evazga baxtga erishish, birovlarning oilasini buzish evaziga o‘zinikini qurish, birovlarning ko‘z yoshlari evaziga o‘zi kulib yurish baxtiga erishishi mumkin edi.

Hodi To‘xtashning “Muhabbat o‘zi eski narsa, lekin har bir yurak uni yangilaydi” degan mazmundagi gaplari esimizga keladi. To‘g‘ri muhabbat yosh millat, irq, din va shunga o‘xshash ko‘plab narsalarni tanlamaydi. Roziyada ham bu holat sodir bo‘ldi. U oilali erkakni sevib qoldi. To‘g‘ri sevib qolgach uning oilali ekanligini bildi, lekin sevgi yurakka joylashib bo‘lgan edi. Odam bolasi xato qiladi, ularning yaxshilari tavba qilishga shoshuvchilari degan mazmundagi hadis mavjud. Hayot yo‘llarida tajribasizligimiz oqibatida xato qilib qo‘yishimiz, xohish va istaklarimiz yetovida boshqalarga aziyat yetkazishimiz ehtimollari juda katta. Yaxshiyamki shunday vaqtlarda yonimizda ustozlarimiz, yaqinlarimiz, jonkuyarlarimiz bor. Ularning hayotiy tajribasi, bizga bo‘lgan mehr muhabbati, adashmasin, xato qilmasin deya qayg‘urishi ham bizga ko‘p yanglish narsalarning oldini olishimizga yordam beradi. Xususan, Roziyaning hayotida ham shu holat yuz berdi. O‘zi rozilik bildiray deb turganda opasining maslahatlari bilan bir oilani buzishdek katta gunohdan saqlanib qoldi.

Ota-bobolarimizdan qolgan bir ajoyib hikmatli gap bor. Yuqorida ham buni eslagan edik. O‘rni kelgani uchun yana bir bor eslatib o‘tamiz “Qushning ham uyasi buzilmasin”. Milliy qadriyatlarimiz, odamlarimizning qon qoniga singib etgan bu qarash qissada ham o‘zining yaqqol aksini ko‘rsatgan. To‘g‘ri bu kabi qarash nafaqat o‘zbek xalqiga, balki boshqa xalqlarga ham xos bo‘lgan qadriyat hisoblanadi. Ana

³ Qodirov P. Erk. www.ziyouz.com

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

shu joyda ravshanlashadiki milliy qadriyatlar negizidan umuminsoniy qadriyatlar bo‘y ko‘rsatadi.

Pirimqul Qodirov qissalaridagi maktublarni bir-biriga muqoyasa qilar ekanmiz undagi bir nechta o‘xshash va farqli jihatlar ko‘rinadi. “Qadrim” qissasida keltirilgan maktub ham qisqagina ko‘rinishda, ixcham va lo‘nda shaklda talqin qilingan bo‘lsa “Erk” qissasidagi xatlar ham qisqa va aniq shaklda bitilgan. Tahlilga tortganimiz birinchi qassadagi maktub yigit tomonidan qiz uchun yozilgan bo‘lib xat oxirida maktub muallifi ismining bosh harfi I yozilgan bo‘lsa, tahlilga tortganimiz ikkinchi qissadagi maktub qizdan yigit uchun yozilgan bo‘lib uning yakunida ham xat egasi ismining bosh harfi R yozilganligini ko‘rishimiz mumkin. Xat hajmining qisqaligi va maktub mualliflarining noma oxirida ismlarining bosh harflari berilishi xatlar talqinlaridagi o‘xshashliklardir. Ularning farqli jihatlarini esa, yozuvchining mahoratini, uning kuzatuvchanligini alohida e’tirof qilgan holda sanab o‘tish lozim. Iskandarning xatida aytib o‘tganimiz yoshlik, g‘o‘rlik, soddalik ufurib tursa, Roziyaning xatida xayrlashuv, ayriliq qabariq tarzda ifoda etilgan. Umuman olganda yozuvchi maktubni kimning tilidan berayotganini o‘quvchi qissani o‘qimasdan faqat maktubni o‘qib ham taxmin qila oladi. U yoshmi, yoshi kattami, ayolmi, erkakmi, vaziyati, holati, kayfiyati ham xatda o‘zini namoyon etib turadi.

Abdulla Qahhor ta’biri bilan aytganda asarlari salmog‘ini bemalol Yevropa gazi bilan o‘lchash mumkin bo‘lgan ijodkorlardan biri Chingiz Aytmatov. Yozuvchi o‘zining qator roman va qissalari bilan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning go‘zal ko‘rinishlarini talqin qilgan. “O‘zidan buyuk ma’naviy meros qoldirgan, badiiy tafakkur bobida XX asrning yorqin siymolaridan biri – yozuvchi, davlat va jamoat arbobi Chingiz Aytmatovdir. Uning hayoti, boshqa ijodkor tengdoshlari qatori sobiq tuzum tamoyillari barcha-barchaning qon-qoniga, o‘y-fikriga singib ketgan yillarga to‘g‘ri keldi. Buni adibning o‘zi ham takror-takror aytgan. U hukron firqa mafkurasi yagona oliy qadriyat sifatida ko‘klarga ko‘tarilgan bir davrda adabiyotga qadam qo‘ydi. Milliy mavzuda yozgan tog‘ va dasht qissalari unga misilsiz shuhrat keltirdi. O‘tgan asrning saksoninchi yillarida esa adib dunyoning turli mintaqalarida, jumaladan, o‘z Vatanida yuz bergan boshqa ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy ziddiyatlarga, tuzum tanazzuliga, kutulgan va kutulmagan talato‘plarga guvoh bo‘ldi. Ko‘z o‘ngida “zo‘r bilan barpo etilgan imorat” – sho‘rolar saltanadi quladi”.⁴ Adib hatto sobiq qizil imperya qonli qilichini yalang‘ochlab turgan davrda ham yuksak salohiyati bilan milliylikni, milliy o‘zlikni, millat dardini umuminsoniy dard

⁴ www.oyina.uz Meliboyev A. “Chingiz Aytmatovning matbuotda e’lon qilinmagan gaplari” maqola 04.06.2024

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ko‘rinishida talqin qila olgan. Uning ko‘plab qissalarida oddiy qizg‘iz ovulining mehnatkash odamlari hayotida sodir bo‘lgan hayajonli, quvonchli, tashvishli, uqubatli voqealar talqin qilingan. Uning roman va qissalarini bugungi kunda dunyo xalqlari o‘qimoqda. “Aytmatovshunos olim Abdullajon Aqmataliyev bunday yozadi: “Qirg‘iz shoiri Jo‘mart Bo‘kanboyev she‘rlarining birida “Shunday vaqt keladiki, qirg‘iz adabiyoti yurt hududidan chiqib, Yevropaga yetib boradi, dunyo bo‘ylab qadam tashlaydi, dunyo adabiyotining kichik bo‘lsa ham munosib tarkibiy qismi bo‘lib qoladi”, deya bashorat qilgan edi. Ko‘rib turibmizki, u haq bo‘lib chiqdi. Lekin o‘sh kezlar she‘r muallifining orzu-umidalarini kitobxonlar shunchaki shoirona shirin xayol deb o‘ylagani aniq. Oradan bor yo‘g‘i bir necha yil o‘tib, bu orzu-umidlar Aytmatov misolida to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqdi. Qirg‘iz adabiyoti adabiy olimp sari shiddat bilan ko‘tarilmoqda. Haqqoniy, achchiq va ayni paytda, nekbin badiiy so‘z turli mamlakatlar va qit‘alar osha kitobxonlar yuragida akssado topmoqda. Aytmatovdek iste’dod egasini tarbiyalab voyaga yetkzagan xalq baxtiyordir”.⁵ Aytish mumkinki, bu baxtiyorlik hali uzoq asrlar mobaynida nafaqat qirg‘iz xalqini, balki butun turkiy xalqlarni tark etmaydi.

Chingiz Aytmatov “Erta qaytgan turnalar” deb nomlangan qissasida ikkinchi jahon urushi davrida urush ortidagi xalqlarning ayanchli, achinarli hayotini qirg‘iz xalqi misolida ko‘rsatib bergan. Qissani o‘zbek tiliga Asl Rashidov tarjima qilgan. Qissa boshlanishida muallif tomonidan “O‘g‘lim Asqarga” degan so‘zlar yozilgan. Bundan anglashiladiki qissa yozuvchining Asqar ismli o‘g‘liga bag‘ishlangan. Undan keyin esa ketma-ket uchta epigraf keltirilgan. Har uchala epigraf ham o‘quvchiga qissa mazmunini anglatishga, bildirishga qaratilgan dastlabki urg‘ular hisoblanadi. Ayniqsa, “Theragatha” 527-536-betlar qadimgi Hindiston adabiyoti yodgorliklaridan deb ko‘rsatilgan quyidagi satrlar asarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri mazmunini, mohiyatini ochishga, qissadagi voqealarning fojeaviyligini teranroq anglatishga xizmat qilgan. Asarda maktab bolalarining qo‘sh haydab, yangi ekin yerlari ochishi, ularni shudgor qilishi, ekin maydonlari kengaytirishda kattalar uchun sitqidildan yordam berishi kabi harakatlar aksi mujassam.

Qayta-qayta dalasini shudgor qilar qo‘shchilar,
Qayta-qayta sepadilar yerlariga urug‘, don,
Qayta-qayta yomg‘ir bilan siylar ularni osmon...

⁵ www.oyina.uz Meliboyev A. “Chingiz Aytmatovning matbuotda e‘lon qilinmagan gaplari” maqola 04.06.2024

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Umid bilan yer haydaydi odamlar,
Umid bilan urug‘ sochar odamlar,
Umid bilan dengiz ketar odamlar...⁶

Umuman olganda ikkinchi jahon urushi vaqtidagi qirg‘iz xalqining front orti hayotini, urush minglab chaqrim uzoqlikda borayotgan bo‘lsada jafokash xalqning boshdan kechirayotgan qiyinchiliklarni mahorat bilan talqin qilgan. Bu qissada ham bir nechta maktublar uchraydi. Kolxozda ishga yaroqlik odam deyarli qolmaganligi, borlarining ham ishi boshidan oshib yotganligi sababli kolxoz raisining iltimosi bilan maktabning yuqori sinflarida o‘qiydigan o‘g‘il bola o‘quvchilaridan yangi yerlar ochish, u yerlarni shudgor qilish va bug‘doy ekishga jalb qilinadi. Tengdoshlariga nisbatan yoshi va bo‘y-basti kattaroq bo‘lgan bir nechta o‘g‘il bolalar qishloqdan olisroq joyga, yangi ochiladiga yerlar tomonga ketisha tayyorgarlik ko‘rayotgan bir pallada tadqiqotimiz mavzusi bo‘lgan maktublar masalasi qissa sahnida bo‘y ko‘rsatadi.

Sultonmurod ismli yigit sinfdosh qiz Mirzagulni yaxshi ko‘radi. O‘ylaydiki qiz ham uni yaxshi ko‘radi. Yangi ekin yerlari ochish uchun qishloqdan uzoqqa ketmasdan oldin Mirzagulning ko‘nglida nima borligini bilib ketishni istagan Sultonmurod o‘ylay-o‘ylay qizga xat yozishga qaror qiladi. “Deraza tokchasidagi lampalarni ikki marta tuzatib qo‘yishga to‘g‘ri keldi. Piligi tugab borardi. Yaxshiyam onasi boshqa xonada yotar va uning oxirgi kerasinni yoqib tugatayotganini bilmas edi. Xatga hamon nima deb yozishni bilmagani uchun emas, balki aksincha, hammasini to‘kib solish istagi borligi uchun ham qovishmasdi.”⁷ O‘smir yoshida hayajonlar ichida ilk maktubini bitishga uzoq tayyorlanayotgan oshiqning ko‘ngil kechinmalari, harakatlari shu tarzda talqin qilingan. Talqin asnosida o‘sha davr odamlarining turmush tarzi, ijtimoiy ahvoli, yashash sharoiti ham ko‘rsatilib o‘tilmoqda. Maktub bitishga chog‘langan o‘smir ko‘nglidagi aytishi kerak bo‘lgan gaplari shu qadar ko‘pki, uning hammasini aytish, xatda birma-bir bitish amri mahol. Shu boisdan uni o‘ylantirayotgan narsa xatga nima deb yozish emas, hammasini qisqa ixcham tarzda qanday bitishni bilmayotgani edi. Xatga taraddudlanayotgan Sultonmurod tasviri fonida tugayotgan kerasin haqida va uning tugayotganini bilsa urishishi mumkin bo‘lgan onasi haqida ham ozgina ma’lumot berib o‘tiladi.

“Nihoyat u yozishga qaror qildi. O‘z xatini “Oshiqlar maktubi” deb nomlab, uni go‘zallik yog‘dusi uyidagi lampa yog‘dusi o‘rnini bosa oladigan, ovulda

⁶ Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Toshkent. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi 2018-yil 555-bet

⁷ Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Toshkent. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi 2018-yil 558-bet

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

yashaydigan sohibjamol M.ga bag‘ishlanganini yozdi. Keyin, bozorda minglab kishilar uchrashsalar-da, faqat bir-birovlariga qo‘l uzatishni lozim ko‘rganlarigina salomlashishini yozdi. Bularni hammasini u Jamonqulning xatidan yodlab olgandi. Xat so‘ngida Jamolqulning she‘rini esladi:

Oqsoy, Ko‘ksoy, Sariqsoy – kezmagan yer qolmadi,
Ammo sening o‘xshashing hech qaydan topilmadi...⁸

Xatga kiritilgan bu she‘r qirg‘iz xalq qo‘shig‘i bo‘lib bu satrlar qissaning epigrafi sifatida ham berilgan. Berilgan xatda muallifning hayajonlari yaqqol sezilib turadi. Tadqiqot ishimiz doirasida tahlil qilgan qissalarimizga kiritilgan xatlarning hech biriga nom qo‘yilmagan edi. Chingiz Aytmatovning “Erta qaytgan turnalar” qissasidagi tahlilga tortayotganimiz bu xatga esa nom qo‘yilgan. Qo‘yilganda ham o‘ziga xos topib qo‘yilgan. Nomlanishidan ham bilish mumkinki oshiq yurak g‘alayonlari sarlavhada ham sezilib turadi “Oshiqlar maktubi”. Hali qizdan javob olmasdan, uning yuragida nima borligini bilmasdan nomaga bemalol bunday nom qo‘yishdan ham seziladiki yigitda o‘ziga bo‘lgan ishonch yuqori shuning bilan birgalikda biroz saddolik ham bor. Parchada e‘tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan yana bir o‘rin mavjud. Bu o‘rin shu xat ichida yana bir xatga ishora berilganligidadir. Sultonmurod parcha yakunidagi qirg‘iz xalq qo‘shig‘idan olingan satrlarni Jamonqulning xatida ko‘rgan va yodlab olgan edi. Keyingi tasvirlarda xatni qanday berish, unga qanday javob olish mumkinligi yigitni hayajonga solidi, o‘y-xayollar ummoniga g‘arq qiladi. Lekin xat matni asarda berilmaydi. Faqat muallif tilidan uning mazmuni haqida gap boradi.

Qissada faqat ishqona, oshiqona maktublar emas boshqa mazmundagi xatlar ham uchraydi. Shulardan biri maktab o‘qituvchisi Inkamol opaning o‘g‘lidan kelgan maktub. Ikkinchi jahon urushi davrida jang maydonlarida yurgan askarlardan xat olish askarning oila a‘zolari uchun katta bayram bo‘lgan. Qora xat kelishi esa nafaqat oila uchun balki, butun qarindoshlar, tanishlar, butun qishloq ahli uchun aza bo‘lgan. Bunday tasvirlarni Erkin Vohidovning “Nido” dostonida ham ko‘rishimiz mumkin.

Tunov kun darsga kelmati Tal’at,
Muallim urushsa turaverdi jim.
Otasidan kelgan ekan qora xat,

⁸ Aytmatov Ch.558-559-betlar

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Hammamiz yig‘ladik, hatto muallim.

Milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat tushunchalari mavjud ekan ular bilan bir qatorda yuruvchi milliy fojea, umuminsoniy fojea tushunchalari ham bor. Ikkinchi jahon urushi umumjahoniy fojea bo‘ldi. Minglab insonlarning yostig‘i quridi, millionlab bolalar yetim, millionlab ayollar beva bo‘lib qoldi. Shunday fojelar atrofida yashayotgan, kunda kun ora qaraxat olgan insonlarning ahvolini kuzatayotgan odam uchun urushdagi yaqinidan xat olish, ayniqsa u ona bo‘lsa juda boshqacha bo‘lishini ham qissadan olingan quyidagi parchada kuzatishimiz mumkin. “Xat kelgan kunlari bayram bo‘lib ketadi! Inkamol opa turgan joyidayoq xatga tezgina ko‘z yugurtirib chiqib, qog‘ozdan bosh ko‘targanida sinfda go‘yo boshqa muallima paydo bo‘lib qolganday bo‘ladi. Tutam-tutam oq aralashgan sochlarini ro‘moli ostiga chiroyli qilib bostirib olgan muallimaning shunday quvonchga to‘lganida xotirjam turish, uning ko‘zlarida yosh ko‘ringanida yuraging achishmasligi mumkin emas.”⁹ Ko‘rinyaptiki xat tafsilotlari ochiqlanmasidanoq uning inson kayfiyatiga ta’siri, uning holatidagi o‘zgarishlari haqida o‘quvchiga xabar berilyapti. Umuman olganda o‘qituvchi shaxsiga xos tarzda talqin qilingan bu obraz. Xuddi avvalgi xatdek bu xatning ham mazmuni o‘quvchiga ochiqlanadi ammo to‘g‘ridan-to‘g‘ri matn berilmaydi. Chingiz Aytmatovning badiiy mahorati shundan darak beradiki xat matni berilmasada o‘quvchi unda nimalar yozilganini muallif tilidan berilgan ba’zi ma’lumotlarga asoslangan holda to‘la tasavvur qilishi mumkin.

“ – Hammalaringga salom, bolalar, kattakon salom! Og‘alaring sog‘-salomat ekan. Jang qilyapti, – deydi u suyunayotganini butun sinfdan yashirolmasdan qaltiroq ovozini bosib. Barcha unga talpinib, go‘yo bu quvonchni baham ko‘radiganday chehralariga tabassum yoyiladi. Biroq birozginadan so‘ng o‘zi shunday deydi: – Endi, bolalar, mashg‘ulotimizni davom ettiramiz.”¹⁰ Bu parchadan anglashiladiki, muallif o‘qituvchini bolalar nigohi bilan kuzatyapti. Ularning tasavvurlari bilan o‘quvchiga holatni ko‘rsatib beryapti. Ularning hayajonini, entikishlarini aniq va tabiiy tarzda talqin qilib beryapti..

Qissada keltirilgan ikkita maktubni bir biri bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, xatlar kim tomonidan nima maqsadda yozilgani, noma muallifining yoshi, maqsad-muddaolari xat matnida berilmasada goh muallif tilidan, goh obrazlar tilidan berilgan ma’lumotlari orqali anglashiladi. Bu usulni maktub talqinlarining o‘ziga xos bir ko‘rinishi deb baholash mumkin.

⁹ Aytmatov Ch. 540-bet

¹⁰ Aytmatov Ch. 540-bet

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Umuman olganda turkiy xalqlar adabiyotida, xususan, Pirmqul Qodirov va Chingiz Aytmatov ijodida maktublar bilan bog‘liq o‘rinlar o‘zigaxos salmoqqa ega. Tahlilga tortganimiz Pirmqul Qodirovning “Qadrim”, “Erk” qissalari va Chingiz Aytmatovning “Erta qaytgan turnalar” qissasida keltirilgan maktublar talqinlarida shaxsiy qadriyatlardan milliy qadriyatlar tomon yuksalish, milliy qadriyatlar negizidan umuminsoniy qadriyatlar bo‘y ko‘rsatganligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent 2018-yil
2. Qodirov P. Qadrim (qissa) “Ilm-ziyo-zakovat” Toshkent 2022-yil
3. www.ziyouz.com
4. www.oyina.uz